

“ATERIS” biologik faol qo‘shimchasi

O‘zR FA Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan “ATERIS” biologik faol qo‘shimchasi ishlab chiqildi. U qonda xolesterin moddasining yuqori darajada ko‘payib ketishining oldini olish maqsadida bemorlarni davolash uchun ishlatiladi. Ushbu biologik faol qo‘shimcha lipidlar almashinuvini normallashtiradi, qo‘shimcha aterogen lipidlar (shu bilan birga “salbiy xolisterin”) me‘yorida ortib ketish xavfini pasaytiradi. Shuningdek, tomirlarni morfofunksional holatini yurak-qon tomiri va asab tizimlari, tomirlar sog‘lomligining funksional holatlarini, qon almashinuvini yaxshilaydi, jismoniy va aqliy ish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

